



## MINTAQALAR BARQARORLIGI VA SANOAT SALOHİYATINING O'ZARO UYG'UNLIGINING KONSEPTUAL ASOSLARI

**Urazaliyev Bekzod**

Urganch davlat universiteti

ORCID: 0009-0001-0289-594X

[dunyouz@mail.ru](mailto:dunyouz@mail.ru)

**Annotatsiya.** Mintqalarning ishlab chiqarish salohiyati, uning o'ziga xos tavsifiy jihatlari ochib berilgan. Shuningdek, mahalliy hamda xorijiy tadqiqotlar asosida sanoat salohiyati bo'yicha qarashlar tizimlashtirilgan. Mazkur tadqiqotlar asosida mualliflik yondashuvlari ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, mintqa sanoat salohiyati omillari ilmiy-nazariy jihatdan sanab o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** salohiyat, ishlab chiqarish salohiyati, sanoat salohiyati, omil, tamoyil, Xorazm.

## КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ВЗАИМОСВЯЗИ УСТОЙЧИВОСТИ РЕГИОНОВ И ПРОМЫШЛЕННОГО ПОТЕНЦИАЛА

**Уразалиев Бекзод**

Ургенчский государственный университет

**Аннотация.** В статье раскрывается производственный потенциал регионов и его специфические характеристики. Также систематизируются взгляды на промышленный потенциал на основе отечественных и зарубежных исследований. На основе этих исследований разработано авторские подходы. В том числе, перечислено научно-теоретические факторы промышленного потенциала региона.

**Ключевые слова:** потенциал, производственный потенциал, промышленный потенциал; факторы, принцип, Хорезм.

## CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF THE INTERRELATIONSHIP BETWEEN REGIONAL SUSTAINABILITY AND INDUSTRIAL POTENTIAL

**Urazaliyev Bekzod**

Urgench State University

**Abstract.** This article explores the production potential of regions and its specific characteristics. It also systematizes views on industrial potential based on domestic and international research. Based on this research, the author's approaches have been developed. This includes a list of scientific and theoretical factors that influence a region's industrial potential.

**Keywords:** potential, production potential, industrial potential, factors, principle, Khorezm.

### **Kirish.**

Sanoat sohasining rivojlanishi iqtisodiyotda barcha tarmoq va sohalarni harakatga keltiruvchi muhim bo'g'in hisoblanadi. Chunki, barcha sohalarga, shu jumladan sanoatning o'zi uchun ham mashina va asbob-uskunalar mazkur tarmoqda yaratiladi. Shu o'rinda, qishloq xo'jaligi xom ashyosining iste'molchisi ham sanoat sanaladi. Bir so'z bilan ifodalaganimizda, sanoat barcha tarmoqlarning talab va taklif qoidasiga muvofiq ta'sir qiluvchi kuchidir. Shunday ekan, ushbu sohani rivojlantirishimiz, uning barqaror o'sishini ta'minlashimiz zarur. Buning uchun esa sohaning mavjud va istiqboldagi imkoniyatlaridan to'liq hamda samarali foydalanish talab qilinadi.

Ayniqsa, sanoatni mintaqalar darajasida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur bo'ladi. Chunki, mamlakat sanoat siyosatining asosini mintaqalar tashkil qiladi. Shu bilan birga, mintaqalar barqaror rivojlanishida ham hududiy sanoat siyosati muhim. Chunki, har bir mintaqada sanoati o'ziga xos omil va manbalarga ega. Bu esa, mintaqada sanoatning o'ziga xos xususiyatlarga muvofiq ixtisoslashuvi va rivojlanishini bildiradi. Demak, mintaqalarda sanoatni rivojlantirish uchun uning salohiyatidan samarali foydalanish zarur. Shu bois, sanoat salohiyati, uning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha qarashlarni tizimli ravishda o'rganamiz.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Dastlab, salohiyat so'zining lug'aviy ma'nosiga to'xtalib o'tamiz. "Salohiyat" lotincha so'z bo'lib, "imkoniyat, kuch, qudrat" ma'nolarini ifodalaydi. Shuningdek, ushbu tushunchaga turlicha yondashuv va qarashlar mavjud bo'lib, Shanazarova (2017) tadqiqotlarida salohiyat so'zining ma'nosi "mavjud vositalar majmui", "har qanday sohadagi imkoniyatlar", deb talqin qilingan. Demak, qarashlar zahirida yuqorida aytib o'tganimizdek, imkoniyatlar majmui tavsiflanmoqda. Ya'ni, salohiyat joriy vaqtda foydalanilayotgan hamda foydalanishi mumkin bo'lgan manbalarni o'z ichiga oladi, deya ta'riflashimiz mumkin.

Jumladan, Yabjanovanning (2014) fikricha, "mintaqaning iqtisodiy salohiyati" mintaqaning ma'lum bir vaqt davomidagi resurslari mavjudligi va ehtiyojlarning maksimal darajada qondirilishi, deya ta'riflagan. Bizningcha, muallif tomonidan keltirilgan ta'rif tor va bir taraflama bo'lib, mazkur tushunchani ochib berish uchun yetarli emas. Fikrimizcha, mintaqada iqtisodiy salohiyati borasida gapirilganda uning o'ziga xos ishlab chiqarish hamda xizmatlar sohasini ham tavsiflashimiz zarur.

Bir guruh tadqiqotchilar o'z ishlarida ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat, iqtisodiy salohiyat kabi tushunchalarga to'xtalib o'tishgan. Jumladan, mualliflar fikricha, ijtimoiy-iqtisodiy salohiyat bu hududning resurs imkoniyatlarining jamlangan tavsifidir. Iqtisodiy salohiyat esa, resurslardan maksimal darajada foydalanish asosidagi ishlab chiqarish hajmi sifatida tavsiflanadi (Гайрбекова, 2020). Fikrimizcha, mualliflar mazkur tushunchalarga umumiy tarzda to'xtalib o'tishgan. Ular hududiy xususiyatlarga ko'ra talqin qilishmoqchi bo'lishsada, tavsiflar umumiylik xususiyatiga ega. Shuningdek, iqtisodiy salohiyatni resursli jihatlariga ko'ra ta'riflashmoqda.

Shunday bo'lsada, nisbatan keng tushuncha Maxmudov (2019) tomonidan keltirilgan. Jumladan, muallif fikricha, mintaqaning ishlab chiqarish salohiyati – mavjud resurslardan samarali va oqilona foydalangan holda uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlash hamda tashqi muhit bilan o'zaro munosabatlar jarayonida iste'molchilarni sanoat mahsulotlariga bo'lgan talabni shakllantirish, aniqlash va qondirish qobiliyatini anglatadi. Fikrimizcha, muallif ushbu ta'rifi asosida nafaqat ichki iqtisodiy munosabatlarni, hatto mintaqaning tashqi iqtisodiy faoliyatini ham qamrab olishga harakat qilgan.

Iqtisodiy adabiyotlarda ishlab chiqarish salohiyati tushunchasi bilan bog'liq yondashuvlar quyidagi tarzda tasniflangan (Тертышник М.И., 2018): milliy iqtisodiy yondashuv: bunda mamlakat milliy boyligining elementi sifatida belgilanadi; zaxira (samaradorlik) yondashuvi: bunda ishlab chiqarish salohiyati korxonada ishlab chiqarish salohiyati qiymatiga tenglashtiriladi; tashkiliy va iqtisodiy yondashuv: bunda korxonaning

ishlab chiqarish salohiyati iqtisodiy munosabatlar tizimi sifatida o'rganiladi; funksional yondashuv: bunda ishlab chiqarish salohiyati korxonaning mahsulot ishlab chiqarish qobiliyati yoki imkoniyati sifatida baholanadi; resursli yondashuvi: bu yondashuv ishlab chiqarish salohiyati korxonaning ma'lum ishlab chiqarish resurslaridan iborat ekanligiga asoslanadi. Shu bilan birga mualliflar fikricha, keng tarqalgan yondashuv resursli yondashuv bo'lib, u o'z ichiga quyidagi elementlarni oladi: asosiy ishlab chiqarish fondlari, korxonada xodimlari, texnologiya va axborot.

Shuningdek, sanoat salohiyati bilan bog'liq tadqiqotlar ham amalga oshirilgan bo'lib, mamlakatimizda qator olimlar o'z qarashlarini bildirishgan. Jumladan, ishlab chiqarish salohiyati bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarda resurslardan foydalanishni yanada yaxshilash, shuningdek, uni boshqarish samaradorligini oshirish ilgari surilgan. Aksariyat ta'riflarda mualliflar sanoat ishlab chiqarish salohiyatini to'g'ridan-to'g'ri resurslar bilan ta'minlanganlikka qaratishgan. Jumladan, sanoatning ishlab chiqarish salohiyati korxonada mavjud bo'lgan texnik, mehnat, moddiy va energiya resurslari yordamida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha korxonaning imkoniyatlarini belgilaydi. Sanoat korxonasi ishlab chiqarish salohiyati - bu korxonaning iqtisodiy faoliyatini ta'minlaydigan moliyaviy, moddiy, nomoddiy, intellektual, axborot, texnologik, innovasion va boshqa resurslarning jami sanaladi. Shuningdek, bir guruh iqtisodchilar tomonidan berilgan ta'rifda ham asosiy e'tibor resursli imkoniyatlarga qaratilgan. Jumladan, sanoat korxonalarining ishlab chiqarish salohiyati - bu ularning belgilangan maqsadlariga erishish uchun texnik, moddiy, moliyaviy va axborot resurslari imkoniyatlaridan samarali foydalanishdir. Ishlab chiqarish salohiyati korxonada salohiyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning faoliyatida muhim rol o'ynaydi (Аллахвердиев А.И., 2022). Fikrimizcha, yuqoridagi ta'riflarning barchasida birdek sanoat korxonalarining ishlab chiqarish salohiyati sifatida ularning resurs imkoniyatlariga e'tibor qaratilgan. Bu yerda, mualliflar faqat egalik qiluvchi yohud foydalanilayotgan resurslarga e'tibor qilgan bo'lsada, korxonalar salohiyatiga hududda mavjud, lekin foydalanilmayotgan ishlab chiqarish omillarini ham kiritishimiz zarur bo'ladi. Chunki, mintaqada va uning hududlaridagi resurslar foydalanish, foydalanmasligidan qat'iy nazar sanoat uchun salohiyat sanaladi. Chunki, ular asosida mazkur mintaqalarda ixtisoslashuv belgilanadi.

P.I.Razinkov (2016) tadqiqotlarida ham sanoat korxonalarini, umuman korxonalar salohiyatini resursli yondashuvi o'rganilgan. Uning fikricha, korxonalar salohiyati korxonada ishlatiladigan va uning barqaror ishlashi uchun zarur bo'lgan moddiy, moliyaviy, mehnat, innovasion, axborot resurslari, ishlab chiqarish va texnik baza, shuningdek, ushbu resurslar orqali korxonada maqsadiga (maqsadlariga) erishish imkoniyatlari yig'indisi, deb ta'kidlangan. Fikrimizcha, muallif korxonaning resurs salohiyati bo'yicha yondashuv ishlab chiqqan bo'lsada, ta'rifda korxonada faoliyatining natijaviy jihatlariga ham e'tibor qaratilgan. Shunday bo'lsada, muallif faqat foydalanilayotgan resurslarga e'tibor qaratmoqda, aslida egalik qilayotgan resurslarni nazarda tutish zarur bo'ladi. Ya'ni, resurslar zaxirasi ham korxonada salohiyatini baholaganimizda muhim mezon hisoblanadi.

A.O.Larionov (2015) fikricha, sanoat salohiyati hududdagi korxonalarining umumiy quvvat imkoniyatlari va resurslar mavjudligi bilan ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish imkoniyatini tavsiflaydi. Shu bilan birga, muallif fikricha, ishlab chiqarish omillarini tasniflashda sanoat salohiyatining tarkibiy qismlarini moddiy-texnik, innovasion, investisiya, mehnat, infratuzilma va moliyaviy salohiyatlarga tasniflash ilgari surilgan. Fikrimizcha, muallif sanoat salohiyatiga umumiy tarzda yondashib, uning omillarini tarkibiy tuzilishi bilan bir xilda tavsiflagan. Shunday bo'lsada, investisiya va moliyaviy salohiyatni bir tarkibda keltirilishi mumkinligini e'tiborga olishimiz zarur. Chunki, korxonada moliyaviy faoliyatining barqarorligi albatta investisiyalarni jalb etish ko'lamini kengaytiruvchi asosiy manba hisoblanadi. Bu borada, sanoat salohiyatining infratuzilma omilini alohida ajratib ko'rsatganligi muhimdir. Ushbu element barqaror rivojlanishning asosiy omili hisoblanadi

hamda resurslarni taqsimlash va qayta taqsimlashni samarali tarzda amalga oshirish imkonini beradi.

BMT (2023) tadqiqotlarida ishlab chiqarish salohiyati mamlakatning tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish qobiliyatini birgalikda belgilaydigan va uning o'sishi hamda rivojlanishiga imkon beradigan ishlab chiqarish resurslari, tadbirkorlik imkoniyatlari va ishlab chiqarish munosabatlari, deya ta'rif berilgan. Shuningdek, omillarini ham tadqiq etib o'tilgan bo'lib, ular tarkibiga inson, tabiiy, moliyaviy va jismoniy kapital resurslari kiritilgan. Inson resurslari ishchi kuchining miqdori va sifati bo'lib, ular ta'lim, sog'liqni saqlash va ko'nikmalar bilan belgilanadi. Tabiiy resurslar, boshqa narsalar qatori, qishloq xo'jaligi yerlari, suv, o'rmon xo'jaligi va energiya resurslarini o'z ichiga oladi. Moliyaviy kapital resurslari ishlab chiqarish, investisiyalar va innovatsiyalarni moliyalashtirish uchun moliyaviy kapitalning mavjudligi va qiymati bilan belgilanadi. Jismoniy kapital resurslari transport, energetika va telekommunikasiya infratuzilmasi kabi asosiy kapital va jismoniy infratuzilmani o'z ichiga oladi.

Mazkur yondashuvda amalga oshirilgan tadqiqotlarda sanoat salohiyati atroflicha tadqiq etilgan. Jumladan, ushbu tushunchaning tavsifi, omillari hamda tarkibiga to'xtalib o'tilgan. Ushbu tadqiqot nisbatan keng tarzda talqin etilgan. Shu bois, qarashlarda makro darajagi xususiyatlarga to'xtalib o'tilgan. Shunday bo'lsada, mazkur tadqiqotni sanoatning keng ma'nodagi tavsifi sifatida qabul qilamiz.

M.I.Tertishnik (2017) esa, ishlab chiqarish salohiyati bilan bog'liq ta'riflarni ikki xil tarzda o'rganish zarur deb ta'kidlaydi. Jumladan, resursli yondashuv keng qo'llaniladi deya, tavsiflab, fikricha, unga asoslanib ishlab chiqarish salohiyati korxonalar ishlab chiqarish resurslarining umumiy jihatlarini o'z ichiga oladi. Muallif o'rganishning ikkita yo'nalishini ajratish mumkinligini qayd etib o'tgan: ishlab chiqarish salohiyati faqat ma'lum ishlab chiqarish resurslari bilan tavsiflanadi; korxonaning ishlab chiqarish salohiyati ma'lum mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq resurslarning umumiylik sifatida tushuniladi. Xulosaviy fikri yakunida, ishlab chiqarish salohiyati - bu ma'lum bir ishlab chiqarish resurslari yoki ishlab chiqarish omillari to'plamidan iborat tizim deb ta'rif bergan. Fikrimizcha, ishlab chiqarish salohiyati faqat resursli yondashuv asosida tavsiflanmaydi, balki ushbu omillar hisobiga olingan natija hamda uning o'zgarishini ham o'z ichiga oladi.

M.A.Razozina (n.d) fikricha, ishlab chiqarish salohiyati - bu mavjud texnologiya darajasi va ishlab chiqarishni tashkil etishning ilg'or shakllarini hisobga olgan holda, resurslardan eng samarali foydalanish bilan erishish mumkin bo'lgan yuqori ishlab chiqarish natijasiga erishish uchun makro va mikro darajalarda iqtisodiy sub'yektlar o'rtasida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi. Shuningdek, muallif korxonaning ishlab chiqarish salohiyati - bu raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish uchun ma'lum imkoniyatlarga ega bo'lgan, o'zaro bog'liq va ta'sir qiluvchi texnik, mehnat va moddiy-energiya resurslariga ega murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim. Fikrimizcha, muallif ishlab chiqarish salohiyatining tavsifini ishlab chiqarishda uning tarkibiy tuzilishiga e'tibor qaratgan. Ya'ni, keltirilgan ta'rif tarkibiy yondashuv asosida amalga oshirilgan. Shunday bo'lsada, korxonalar salohiyatini ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida qarab o'tmoqda. Aslida tizim bir butun korxonaning o'zi hisoblanadi.

Shuningdek, boshqa bir guruh tadqiqotchilar ham sanoat salohiyatini resurs va imkoniyatlar asosida o'rganganlar. Jumladan, V.V. Kovalev va O.N. Volkovlar (2016) fikricha sanoat ishlab chiqarish salohiyati mavjud moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan foydalangan holda o'z maqsadlariga erishish qobiliyati. L.S.Sosnenkoning (2018) fikricha esa, sanoat ishlab chiqarish salohiyati, umumiy ma'noda, ma'lum bir maqsadga erishish uchun faollashtirilishi va ishlatilishi mumkin bo'lgan manbalar, imkoniyatlar, vositalar va zaxiralarni anglatadi. Fikrimizcha, mazkur yondashuvlar sanoat salohiyatini nisbatan keng ma'noda talqin qilish imkonini bermoqda. Bunda, salohiyat zamirida faqat foydalanilayotgan emas, balki zaxiradagi resurslar ham e'tiborga olingan. Bu o'rinda, mazkur ta'riflardan tegishli tushunchani izohlash o'rinli hisoblanadi.

Shuningdek, sanoat salohiyati bo'yicha natijaviy faoliyatga qaratilgan ta'riflar ham keltirilgan. Jumladan, muallif fikricha sanoatning ishlab chiqarish salohiyati deganda sanoat korxonasi o'zaro bog'liq ishlab chiqarish resurslari to'plami hamda ulardan samarali foydalanish imkoni tushuniladi (Войцеховская И.А., 2010). T.Berdnikova (2010) ta'rifida esa, ishlab chiqarish salohiyati deganda korxonaning turli xil mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish hamda xizmatlar ko'rsatish uchun turli xil ishlab chiqarish imkoniyatlarini birlashtirish tushuniladi. Fikrimizcha, ushbu ta'riflarda mualliflar asosiy e'tiborni natijaviy jihatlariga qaratishmoqda. Bu o'rinda, sanoatning salohiyati haqiqatdan ham uning faoliyati asosida yaratiladigan mahsulotlar va ularning realizatsiyasi bilan belgilanadi. Chunki, sanoat korxonalari egalik qiluvchi resurslar qanday darajada bo'lishidan qat'iy nazar, ularni samarali bandligini ta'minlashi zarur hisoblanadi.

Shu bilan birga, boshqa bir tadqiqotlarda mualliflar sanoat ishlab chiqarish salohiyati sanoat korxonasi faoliyatining ajralmas ko'rsatkichi bo'lib, uning zarur ishlab chiqarish resurslarining mavjudligini, ulardan samarali foydalanish qobiliyatini va o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlarga qaramay, mavjudlik va samaradorlikni dinamik ravishda saqlab qolish va oshirish qobiliyatini tavsiflaydi (Фомин Н.Ю., Краев В.Ю., 2021). Shuningdek, tadqiqot ishida sanoat ishlab chiqarish salohiyati resurslardan foydalanishning keng qamrovli xususiyati bo'lganligi sababli, mualliflar uning tuzilishini korxonada ishlab chiqarish resurslarining uchta asosiy guruhining parchalanishiga asoslanib taklif qilishadi: birinchi guruh - bu korxonaning asosiy ishlab chiqarish aktivlari, ular ishlab chiqarishning moddiy asosi hisoblanadi. Bularga ishlab chiqarish quvvatlari, uskunalar va korxonaning boshqa kapital talab qiladigan resurslari kiradi; ikkinchi guruh aylanma mablag'lar va aylanma aktivlardan iborat. Bu guruhga ishlab chiqarish uchun xom ashyo va materiallar, naqd pul va korxonada aylanma mablag'larining boshqa elementlari kiradi; uchinchi guruh korxonada mehnat resurslaridan iborat bo'lib, ular inson kapitalini aks ettiradi, xodimlar soni, bilimlari, ko'nikmalari va qobiliyatlari bilan tavsiflanadi. Fikrimizcha, mazkur ta'rif nisbatan to'liq va keng ko'lamlili tarzda ifodalangan. Hatto mualliflar ushbu tushunchaga berilgan ta'rifda samaradorlikka ham alohida e'tibor qaratishgan. Shunday bo'lsada, mualliflar shart-sharoitlarga ham e'tibor qilishi o'rinli edi.

O.V.Shnayder va N.N.Fedulovalar (2017) tadqiqotlarida ham asosiy e'tibor sanoat salohiyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan. Ushbu tushunchaga berilgan ta'rif ham samaradorlik nuqtai nazaridan talqin etilgan. Jumladan, mualliflar fikricha, sanoat ishlab chiqarish salohiyati - bu makro va mikro darajalarda xo'jalik yurituvchi subektlar o'rtasida ishlab chiqarish resurslaridan, ya'ni uskunalar va texnologiyalardan samarali foydalanish va korxonada tomonidan qo'llaniladigan ishlab chiqarishni tashkil etishning ilg'or shakllari orqali maksimal natijalarga erishish maqsadida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlardir. Shuningdek, mualliflar sanoat ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar sifatida quyidagilarni ta'kidlab o'tishgan: ishlab chiqarishni tartibga solish; bo'sh turgan uskunalar va ishlab chiqarish maydonlarini o'z vaqtida aniqlash; mavjud ishlab chiqarish quvvatlari va maydonlarida ishlab chiqarish hajmlarini kengaytirish; mahsulot harakati va barcha asosiy vositalarni real vaqt rejimida kuzatib borish imkonini beradigan zamonaviy ofis uskunalaridan foydalanish. Fikrimizcha mualliflar tomonidan berilgan ta'rifda mintaqaviy masalalarga e'tibor qaratilgan bo'lsada, sanoat salohiyati samaradorligini oshirish bo'yicha tadbirlar kesimida korxonada doirasidagi masalalarga e'tibor berilmagan.

O.V.Bakanach va K.V.Gaus (2012) mintaqaning sanoat salohiyatini korxonalarining raqobatbardosh mahsulotlar yaratish va ishlab chiqarish, ularni bozorda sotish, ulardan foyda olish hamda xizmat ko'rsatish qobiliyati, deya ta'rif berishgan. Ular fikricha, mintaqada sanoat salohiyatini oshirish hamda rivojlantirish birinchi o'rinda yangi texnologiyalar, modernizatsiya natijasi hisoblanadi. Mualliflar ta'kidlashicha, sanoatni rivojlantirish yangi ish o'rinlarini yaratish hamda ichki talabni qondirish hisobiga bevosita mintaqalar barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Fikrimizcha, mualliflar ushbu yondashuv orqali mintaqalarda sanoat salohiyatini

oshirish orqali sohani rivojlantirishga hamda ular asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashga erishish uzviyligini ochib bergan. Haqiqatdan ham, sanoat sohasi mintaqa iqtisodiyotidagi barcha tarmoqlarni bir xil yo'nalishda rivojlantiradi va umumiy barqarorlikka hissa qo'shadi.

I.X.Sogoyev (2012) sanoat salohiyatini tegishli hududda joylashgan xo'jalik yurituvchi subektlarning ishlab chiqarishini oqilona tashkil etish va kooperatsiya qilish shartlari ostida tuzilgan shartnomalarga muvofiq korxonalar tomonidan resurslardan foydalanishning maksimal samaradorligini miqdoriy bahosi sifatida tushunadi.

### Tadqiqot metodologiyasi.

Mintaqa darajasida iqtisodiy va ishlab chiqarish salohiyati o'ziga xos jihatlarga ega tushuncha hisoblanadi. Bir guruh tadqiqotlarda mintaqa iqtisodiy salohiyatini omilli va natijaviy jihatlari bo'yicha qarash keng talqin etiladi. Jumladan, omilli jihatdan qaralganda mavjud imkoniyat va shart-sharoitlar e'tibordagi manba sanaladi. Natijaviy jihatlar zamirida esa ehtiyojlar yotadi. Lekin, fikrimizcha har ikki jihat uyg'un holdagini mintaqa iqtisodiy salohiyatini ifodalaydi. Shunday bo'lsada, mazkur tushuncha bo'yicha qarashlarni tizimlashtiramiz.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

Fikrimizcha, muallif asosiy e'tiborini sanoat salohiyatining samaradorlik jihatlari bilan bog'lamoqda. Shunday bo'lsada, uning boshqa tarmoqlar bilan uzviy aloqasini ham ochib berishga harakat qilgan. Demak, sanoat mintaqa iqtisodiyotidagi asosiy bo'g'in sanalar ekan. Chunki, ushbu sohaning rivojlanishi xomashyo bazasi sifatida qishloq xo'jaligini rivojlantirsa, infratuzilma faoliyati asosida xizmatlar ko'lamini kengayishiga olib keladi. Bu jihatdan biz, sanoat salohiyati va mintaqalar barqarorligi uzviy bog'liqligini asoslaymiz (1-jadval).

1-jadval.

### Mintaqa sanoat salohiyati tarkibining barqaror rivojlanishi bilan bog'liqligi

SANOAT SALOHIYATI			
Ishlab chiqarish salohiyati	Mehnat salohiyati	Xom-ashyo va moddiy-texnika ta'minoti	Innovasion salohiyati
Ishlab chiqarish ko'lamining o'sishi	Aholi turmush darajasining o'sishi	Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi	Ilmiy-texnika rivoji va tatbiqi
<b>MINTAQA BARQAROR RIVOJLANISHIGA ERISHISH</b>			

Maxsus sanoat salohiyati bu korxonaning davlat buyurtmasini bajarishga texnik va texnologik tayyorgarligini, materiallar, xom ashyo va butlovchi qismlarning mavjudligini, inson resurslarining tayyorligini hisobga olgan holda harbiy va maxsus maqsadli mahsulotlarning ustuvor namunalarni ishlab chiqarish bo'yicha korxonaning tayyorlik darajasi (Батьковский М.А., Кравчук П.В., Стяжкин А.Н., 2019). Fikrimizcha, mualliflar maxsus harbiy sanoat korxonalari bo'yicha tavsif keltirib o'tgan bo'lsada, ularning e'tibori resurslarni ham, iste'molni ham qamrab olgan. Ya'ni, sanoat salohiyatini tavsiflashda e'tibor qaratishimiz zarur bo'lgan bozorni, mavjud talabni hisobga olganlar. Albatta sanoat salohiyati to'g'risida gapirganimizda uning ishlab chiqargan mahsulotiga bo'lgan samarali talabni e'tiborga olishimiz zarur.

Boshqa bir tadqiqotda, sanoatning iqtisodiy salohiyati - bu iqtisodiyot, uning tarmoqlari, korxonalari va biznesning ishlab chiqarish va iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish, tovarlar, xizmatlar ishlab chiqarish, aholi ehtiyojlari va ijtimoiy talablarni qondirish hamda rivojlanishini ta'minlash qobiliyatidir. Korxonalar iqtisodiy salohiyati ishlab chiqarish salohiyati, moliyaviy salohiyat va intellektual salohiyat tarzida tasniflanadi. Ishlab chiqarish salohiyati korxonaning tovarlar va xizmatlarni samarali ishlab chiqarish qobiliyatini anglatadi. Bu jarayon mehnat

resurslari, asosiy va aylanma ishlab chiqarish aktivlarining mavjudligi va ulardan foydalanish samaradorligi bilan belgilanadi. Korxonaning moliyaviy salohiyati moliyaviy resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanish samaradorligi bilan belgilanadi. Bu daromad, moliyaviy barqarorlik, biznes faoliyati va rentabellik bilan asoslanadi. Intellektual salohiyat, tor ma'noda, korxonaning boshqaruv va buxgalteriya hisobida nomoddiy aktivlar deb ataladigan intellektual mulk bilan ta'minlanganligini va ularning biznes jarayonlarida samarali qo'llanilish darajasini tavsiflaydi. Kengroq ma'noda, intellektual salohiyat, yuqorida aytilganlardan tashqari, iqtisodiy faoliyatni ilmiy, texnik va axborot bilan ta'minlash darajasini, shuningdek, xodimlarning intellektual qobiliyatlari, bilimlari va ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi (Фомин Н.Ю., Ломова Э.Н., 2018). Mazkur yondashuv sanoat salohiyati bo'yicha keltirilgan fikrlarning barqarorlik bilan uyg'unlikdagi tavsifi sanaladi. Ya'ni, sanoat korxonalari barqaror rivojlanishi bo'yicha muhim jihatlarda uning ishlab chiqarish, moliyaviy faoliyati barqarorligiga e'tibor qaratamiz. Ayni damda sanoat salohiyatini yuqoridagi mualliflar mazkur yo'nalishda tavsiflaganliklari bilan ularning qarashlari ahamiyatli hisoblanadi.

N.V.Feygelman (2015) korxonalar salohiyatini oshirish yo'nalishlarini tadqiq qilgan bo'lib, buning uchun quyidagilarni sanab o'tgan: xom ashyo sifatini yaxshilash, mahalliy va xorijiy tajribalarni qo'llash hisobiga aktivlar rentabelligini 20-25% gacha oshiriladi; chiqindilarni sanoat yo'li bilan yo'q qilish hisobiga ishlab chiqarish hajmi 20% gacha, aktivlar rentabelligi esa 10-15% gacha oshiriladi; zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlarini va birinchi navbatda, ularni amalga oshirish uchun resurslarni tejaydigan texnologiyalar va uskunalarni joriy etish hisobiga aktivlar rentabelligi oshiriladi; eskirgan uskunalarni yangi, samarali va tejamkor uskunalarga almashtirish; ishlab chiqarish konsentratsiyasi darajasini optimallashtirish; asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun iqtisodiy rag'batlantirish vositalarini ishlab chiqish.

Shu bilan birga, M.N.Umarova (2014) tadqiqotlarida sanoat salohiyati, uning tarkibiy tuzilishiga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, muallif fikricha, sanoat korxonasining iqtisodiy salohiyati - bu korxonaning atrof-muhit bilan optimal o'zaro ta'sir o'tkazish va iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish orqali iste'molchilarning tovarlar va xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini aniqlash, shakllantirish va maksimal darajada qondirishni ta'minlash qobiliyatidir. Uning tarkibiy tuzilishiga esa quyidagilarni kiritgan: inson resurslari salohiyati: korxonalar tomonidan ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish uchun jalb qilingan mehnat resurslarining miqdori va sifati; korxonaning ishlab chiqarish salohiyati: mavjud uskunalari, texnologiyalari, ilmiy-texnikaviy ma'lumotlari va tabiiy resurslariga asoslangan holda mahsulotning maksimal hajmini ishlab chiqarish qobiliyati; korxonaning innovatsion salohiyati: innovatsiyalar va yangiliklarni ravishda yaratish yoki ularni tashqi manbalardan olish, shuningdek, innovatsiyalarni biznes amaliyotiga samarali joriy etish qobiliyati; korxonaning tashkiliy va boshqaruv salohiyati: boshqaruv tizimining barqaror bozor mavqeini va iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash qobiliyati.

A.N.Dirdonova, N.Yu.Fomin, G.V.Latfullin, E.R.Rahimov (2018) o'zlarining ilmiy maqolalarida ishlab chiqarish salohiyatining tarkibiy qismlarini sanab o'tishgan. Jumladan, ular tarkibiga quyidagilarni kiritishgan: ishlab chiqarish mezonlari - ishlab chiqarish binolari va inshootlari, mashinalar va uskunalar, transport vositalari, uzatish moslamalari, qimmatbaho asboblari va inventarizatsiyalarni o'z ichiga olgan asosiy ishlab chiqarish aktivlari; material - xom ashyo-materiallar, tayyor mahsulotlar zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, debitorlik qarzlari va ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun naqd pullar, aylanma mablag'lar; xodimlar mezonlari - mehnat (ishlab chiqarish) faoliyatini amalga oshirish uchun jismoniy va aqliy qobiliyatlarga ega xodimlarni o'z ichiga olishi kerak bo'lgan mehnat resurslari. Fikrimizcha, mualliflar fikrlari zahirida sanoat salohiyati uchun zarur bo'lgan infratuzilma ob'ektlariga hamda institutsional jihatlarga ham e'tibor qaratish zarur edi. Chunki, infratuzilmaning mavjudligi, uni rivojlanish darajasi sanoatning mavjud imkoniyatlaridan foydalanish jihatlari belgilab beradi.

Bir guruh tadqiqotchilar tomonidan qazib olish sanoatining salohiyati o'rganilgan. Ular izlanishlarida korxonaning ishlab chiqarish salohiyati elementlari tarkibi quyidagicha tasniflangan:

1) konchilik va geologik salohiyat bilan ifodalangan tabiiy tizim (qatlam qalinligi, zaxiralar hajmi, qatlamlar soni, va boshqalar);

2) konchilik va texnologik salohiyat bilan ifodalangan texnik tizimlar (konning loyihaviy quvvati, uning xizmat muddati, kon qazish ishlarining solishtirma davomiyligi, ishchi yuzadagi yuk va boshqalar), asosiy va ishchi vositalar salohiyati;

3) sanoat va ishlab chiqarish xodimlari salohiyati bilan ifodalangan ijtimoiy-iqtisodiy tizim (kon ishchisining mehnat unumdorligi, kon ishchisining o'rtacha yoshi, asosiy jarayonlarning texnologik ishchilar bilan ta'minlanish darajasi, kon ishchisining o'rtacha ish staji, sanoat va ishlab chiqarish xodimlarining umumiy sonidagi karerlardagi ishchilarning ulushi va boshqalar) (Полякова Э.И., Завгородняя А.Г., 2019). Fikrimizcha, mualliflar korxonalar salohiyatini tarkibiy jihatdan o'rganishganda innovatsion salohiyat, moliyaviy salohiyat kabi muhim mezonlari e'tibordan chetda qolgan. Chunki, qazib olish sanoati innovatsiyalar, ilm-fan yutuqlari bilan uzviy bog'liq sanaladi. Shuningdek, ushbu soha moliyaviy resurslar talabchanligi bo'yicha ham boshqa sanoat turlariga nisbatan ustun hisoblanadi.

Bir guruh olimlarning fikricha, ishlab chiqarish salohiyati - bu moddiy-texnik, inson resurslari-intellektual, tashkiliy, iqtisodiy va axborot komponentlarini o'z ichiga olgan yaxlit tushuncha. Shu bilan birga, ishlab chiqarish salohiyati innovatsion rivojlanishi orqali sanoat korxonasining ishlab chiqarish salohiyati holatini tizimli, sifatli yaxshilashga erishiladi (Морозов А.В., Гилязутдинова И.В., Ахметзянова С., 2013). Shuningdek, korxonaning ishlab chiqarish salohiyatini innovatsion rivojlantirishning quyidagi modellarini va shunga mos ravishda innovatsion faoliyat modellarini aniqlash imkoni yaratiladi: inson resurslari modeli - bunda innovatsion rivojlanish asosan xodimlarning harakati va rivojlanishi bilan belgilanadi; moddiy-texnik model - innovatsion rivojlanish texnologiya va materiallarning rivojlanishi bilan belgilanadi; tashkiliy va tarkibiy model - innovatsion rivojlanishning dominant omillari ishlab chiqarishning tashkiliy tuzilmasidagi progressiv o'zgarishlardir; axborot modeli - innovatsion rivojlanish, birinchi navbatda, korxonalar ishlab chiqarish salohiyatining ishlashi uchun axborot almashinuvi va axborot ta'minotini rivojlantirish bilan belgilanadi. Shuningdek, mualliflar korxonalar salohiyatini innovatsion yo'nalishda tavsiflab, quyidagilarni ajratib ko'rsatishgan:

ishlab chiqarish salohiyati tuzilmasida korxonalar uchun mavjud bo'lgan resurslar alohida blok sifatida ajratiladi. Ularni tasniflashda ko'pincha mehnat, moliyaviy va moddiy (ishlab chiqarish va texnik) resurslar muhokama qilinadi;

resurs komponentidan tashqari, zamonaviy iqtisodiy nazariya boshqaruv blokini ajratib ko'rsatadi. Qoida tariqasida, uning ichida uchta kichik tizim ajratiladi: rejalashtirish; amalga oshirish; nazorat;

ishlab chiqarish salohiyatini baholash muammolarini o'rganayotgan barcha tadqiqotchilar uning tarkibiga tashkiliy-strukturaviy va axborot komponentlarini kiritmaydilar. Shu bilan birga ularni korxonalar ishlab chiqarish salohiyati tarkibidan chiqarib tashlash uning ta'rifi va mohiyatini sezilarli darajada soddalashtiradi va cheklaydi. Ushbu holat salohiyatni baholash imkoniyatlarini cheklaydi;

korxonaning ishlab chiqarish salohiyati komponentlar to'plami sifatida qaraladi;

ko'pgina tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqarish salohiyatini baholash ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijalarini tavsiflovchi koeffitsiyentlar asosida amalga oshiriladi;

aksariyat yondashuvlar ishlab chiqarish salohiyatini ta'riflashga asoslangan bo'lib, uning ishlashi va rivojlanishining innovatsion jihatlari hisobga olmaydi;

bu esa ularni korxonaning ishlab chiqarish salohiyati va innovatsion faoliyatini tahlil qilish va baholash uchun samarasiz holatga olib keladi.

Yuqoridagi tadqiqotlardan kelib chiqib, mintaqalar sanoat salohiyatini o'ziga xos jihatlari tavsiflashda bir qator belgilariga e'tibor qaratishimiz zarur. Dastlabki jihati sifatida uning

maqsadlilikini ko'rsatib o'tamiz. Mazkur masala zamirida sanoat salohiyati bir butun tizim sifatida faoliyat olib borishi hisobiga iste'molchilarni sifatli mahsulot bilan ta'minlash orqali foydani maksimallashtirishni o'z oldiga asosiy maqsad sifatida belgilab oladi. Shunday bo'lsada, ushbu jarayon, omil va manbalarni shunday maqbullashtirishi kerakki, uning hisobiga korxonalar o'z faoliyatini to'g'ri tashkil etishi bilan birga, mintaqa rivojlanishiga muvofiq bo'lishi zarur. Bu jihatdan, korxonalar murakkab tizim sanaladi. Lekin, har bir korxonalar o'ziga xos xususiyat kasb etsada, ularning birini tajribasi boshqalari uchun foydalanish imkoniyatini beradi. Bu jihatdan sanoat salohiyati muqobillikka ega.

## 2-jadval.

## Mintaqa sanoat salohiyatini o'ziga xos jihatlarning tavsifi

Sanoat salohiyati tamoyillari va tavsifiy belgilari	Sanoat salohiyati tamoyillarining o'ziga xos jihatlari mazmuni	Tarkibiy tuzilishiga muvofiqligi va erishiladigan natija
<i>Maqsadlilik</i>	Sanoat salohiyatining bosh maqsadi korxonalar foydasini maksimallashtirish yo'nalishida ishlab chiqarish faoliyatini tashkil qilishi zarur	Ishlab chiqarish salohiyati kengayib, faoliyati rivojlanadi
<i>Murakkabligi</i>	Sanoat salohiyati ishlab chiqarish, investisiya, innovatsiya, kadrlar, infratuzilma kabi qator tarkibiy unusrlarga ega bo'lib, ularning har biri o'ziga xos mazmun va mohiyatga egaligi bois, barcha elementlar alohida o'rganishni talab etadi	Iste'mol va ishlab chiqarish jarayonlarining daromad-xarajat harakati davoyiligi ta'minlanadi
<i>Muqobilligi</i>	Sanoat salohiyati bir turdagi korxonalar faoliyati nuqtai nazaridan bir-biriga mos bo'lib, ularning tajribasidan foydalanishda qulaylik yaratadi	Sanoat korxonalar raqobat muhitini shakllanadiradi
<i>Moslashuvchanligi</i>	Sanoat korxonalar faoliyatini tashkil qilishda bozor talabiga muvofiq ishlab chiqarish jarayonini mavjud salohiyatdan kelib chiqib moslashtiradi	Sanoatning marketing salohiyati o'sadi
<i>Quvvati</i>	Sanoat korxonalarining salohiyati uning ishlab chiqarish quvvatini, egalik qilishi mumkin bo'lgan resurslarni hamda samarali talabni shakllantirishi mumkin bo'lgan bozordagi ulushini belgilaydi	Sanoatning bozor salohiyati rivojlanadi
<i>O'zaro bog'liqligi</i>	Sanoat korxonalarining tarkibiy elementlari, jumladan, ishlab chiqarish, resurs, ishchi-xodim, infratuzilma, moliyaviy, innovasion-investision tuzilmalari o'zaro bog'liqlikda faoliyati amalga oshiriladi. Ularning birlashtirilgan amal qilmasligini ko'rsatadi	Tarkibiy elementlarning samarali mutanosibliigi ta'minlanadi
<i>Raqobatbardoshligi</i>	Sanoat korxonalar salohiyati oshishi hisobiga dastlab korxonalar, keyingi rivojlanishda esa butun sanoatni va umumiy holda mintaqaning salohiyati o'sishiga olib keladi va bu umumiy mintaqalar barqaror rivojlanishi hamda raqobatbardoshligi o'sishini ta'minlaydi	Mintaqa barqaror rivojlanishini ta'minlovchi kuchga aylanadi

**Manba:** muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Shuningdek, sanoat salohiyati bozor talabiga muvofiq ishlab chiqarish faoliyatini moslashtirib, o'z faoliyatini doimo diversifikatsiyalashi, innovatsiyalarni tatbiq etishi hamda modernizatsiya jarayonini izchil davom ettirishi zarur. Bu esa uning o'zgarishlarga moslashishini ifodalaydi. Shu bilan birga, sanoat salohiyati ishlab chiqarish, resurs, ishchi-

xodim, infratuzilma, moliyaviy, innovasion-investision tuzilmalari o'zaro bog'liqlikda faoliyati amalga oshiriladi. Ya'ni, sanoat salohiyati mintaqaning muhim bo'g'ini sifatida quvvati hamda o'zaro bog'liq elementlari mavjuddir. Eng asosiysi, mintaqadagi sanoat korxonalari barchasi bir butun tizim bo'lsada doimo bir-biri bilan raqobatlashib, rivojlanish xususiyatiga ega (2-jadval).

### **Xulosa va takliflar.**

Demak, sanoat salohiyatini oshirish, uning faoliyatini to'g'ri tashkil qilishimiz hisobiga birinchi navbatda mazkur tarmoqning barqaror o'sishiga erishar ekanmiz. Ushbu jarayon uzviylikda qishloq xo'jaligi xom ashyosiga bo'lgan talabni kengayishiga, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasi rivojlanishiga sabab bo'ladi. Bir so'z bilan ifodalaganimizda, sanoat salohiyatining oshirish orqali mintaqa barqaror rivojlanishi ta'minlanadi.

Jumladan, bu o'rinda sanoat salohiyatining mintaqaviy omillariga e'tibor qaratish zarur bo'ladi. Ya'ni, Xorazm viloyatining muhim omillari sifatida quyidagilarni sanab o'tishimiz lozim: mintaqada sanoat sohasini rivojlantirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilgan, uning asosida dastur ishlab chiqilgan; mintaqa boy xomashyoga ega respublika viloyatlari bilan qo'shni hisoblanadi. Bu jihatdan Xorazm viloyati sanoati boy xom ashyo bazasi bilan ta'minlangan; mintaqada yetarli darajada ishchi-xodimlar mavjud; mintaqada oliy ta'lim muassasalarining rivojlanganligi hisobiga innovasion infratuzilma izchil rivojlanib borayotgan bo'lib, undan sanoat faoliyati samaradorligini oshirishda foydalanish mumkin; oxirgi yillarda mintaqa va uning tarmoqlariga yo'naltirilgan milliy va xorijiy investisiyalar ko'lami ortib bormoqda.

Umumiy holda, mintaqaning sanoat salohiyati omillaridan samarali hamda maqbul foydalanish hisobiga barqaror rivojlanish imkoniyati yaratiladi. Shu bois, sanoat salohiyatini oshirish, uni rivojlantirishga e'tibor qaratishimiz zarur.

### **Adabiyotlar/ Лумепамыпа/References:**

Mahmudov, M.F. (2019) 'O'zbekistonning sanoat ishlab chiqarish salohiyatini baholash', *Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar*, (1). Available at: <http://www.iqtisodiyot.uz>

Shanazarova, G.B. (2017) 'Sanoat korxonalarining innovasion salohiyatini baholashning ayrim nazariy masalalari', *Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar*, (4). Available at: <http://www.iqtisodiyot.uz>

Аллахвердиев, А.И., Алибеков, М.М. and Маккаева, Р.С. (2022) 'Формирование системы менеджмента производственного потенциала предприятия', *Журнал прикладных исследований*, pp. 662–667. doi: 10.47576/2712-7516\_2022\_11\_8\_662.

Гайрбекова, Р.С. and Мусаков, В.С. (2020) 'Особенности анализа структурных элементов социально-экономического потенциала региона', *Естественно-гуманитарные исследования*, 31(5), pp. 99–103. doi: 10.24412/2309-4788-2020-10530.

Ларионов, А.О. (2015) 'Оценка промышленного потенциала региона', *Проблемы развития территории*, 2(76), pp. 45–61.

Разиньков, П.И. and Разинькова, О.П. (2016) *Ресурсы предприятия: оценка формирования и анализ использования*. Тверь: Издательство ТвГТУ.

Тертышник, М.И. (2018) 'Система показателей оценки производственного потенциала предприятия', *Baikal Research Journal*, 9(1). doi: 10.17150/2411-6262.2018.9(1).10.

Ябжанова, Т.Г. (2014) 'Оценка производственного потенциала Республики Бурятия', *Региональная и отраслевая экономика*, (5). Available at: <http://eizvestia.isea.ru>.